

YASHIL IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISH SHAROITIDA EKOTURIZMNING ROLI

Sodikov Zokir Rustamovich²¹

Kishilarning tabiat bilan uyg‘unlikda turistik faoliyatlarni olib borishlari va tabiat bilan bog‘liq bo‘lgan turistik turlarga ishtirok etishlari “ekoturizm” sifatida talqin qilingan turizm turlarining paydo bo‘lishiga olib kelgan. Bugungi kunda qushlarni tomosha qilishdan to alpinizmga, sportiv baliq ovlashdan yaylov turizmiga bo‘lgan keng ko‘lamdagi miqyosga yoyilgan yoki ommalashgan ekoturizm turlari, destinatsiyalarga ommaviy turizmga nisbatan muqobil variantni rivojlantirishga imkoniyat berayotgani tufayli katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tabiat turizmi yoki ekoturizm - bu tabiatda amalga oshiriladigan faoliyatga asoslangan, rekreatsiya, dam olish, sarguzasht va o‘rganish elementlarini o‘zida mujassamlashtirgan, shuningdek barqarorlik tamoyilini o‘z ichiga olgan turizm turi hisoblanadi. Bunda barqarorlik talqini bilan 4 ta asosiy tamoyilni inobatga olish ko‘zda tutilgan bo‘lib, ular:

- Atrof muhitni muhofaza qilish;
- Turistik faoliyat olib boriladigan hududdagi madaniy va ijtimoiy hayotga ehtirom ko‘rsatish hamda muhofaza qilish;
- Ekoturistik faoliyat orqali hududiy madaniyatlar va an‘analarni yangidan jonlantirishni hamda mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishni kafolat ostiga olish;
- Turistlarda qoniqishni ta‘minlash kabilar talab etiladi.

Shuning uchun tabiatga asoslangan turistik faoliyatlarda ekoturizmning barcha manfaatdor tomonlari bu asosiy tamoyillarga rioya qilishlari talab etiladi. Jumladan:

- Ekologik, ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy jihatdan barqarorlik ekoturizm uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etishini bilishi kerak.
- Ekoturizm faoliyatlari va ularni rejalashtirish, tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish nuqtayi nazaridan turizm va uni dasturlashtirishning ilg‘or tajribalari ta‘minlanishi kerak.
- Tabiatga salbiy ta‘sirini kamaytiradigan tarzda turizm faoliyatlarini tashkil etilishi va amalga oshirilishi kerak.

Ekoturizm turlari tarkibi va uning tasniflanishida o‘ziga xos jihatlari bo‘yicha ta‘limga yo‘naltirilgan, ko‘ngil ochar turlari va hordiq chiqarishga yo‘naltirilgan turlari mavjud bo‘lib, ular quyida keltirilgan jadvalda ifodalangan.

²¹ O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi kafedrası dotsenti, i.f.n.

1-jadval

Ekoturizm turlari tarkibi va uning tasniflanishi²²

Ta’limga yo’naltirilgan turlar	Ko’ngil ochar turlar		Hordiq chiqarishga yo’naltirilgan turlari
Botanika turizmi	Sarguzashtlarga asoslangan turlari	Sportiv turlari	Kemping / karvon turizmi
Qush kuzatuvchiligi (ornitologiya)	Alpinizm-tog’larda	Velosiped turizmi	Yaylov (plato) turizmi
Tabiatni suratga olish	Safari (Ot/Jip/tuya va boshqalar)	Suv ostida sho'ng'in (skuba sho'ng'in)	
Yovvoyi tabiatni kuzatish	Balon turizmi	Baliq sporti	
Qishloq xo'jaligi/fermer turizmi	Paraplarda uchish	Trekking va piyoda yurish (tabiat/tog'da yurish)	
Geomorfologik shakllanishlarni kuzatish (geoturizm/g'or turizmi)	Daryo turizmi (kanoe va rafting)	Ovchilik turizmi	

Ekoturizmni o'rganish, tahlil qilish va atrof-muhitga nisbatan sezgirligini ta'minlash uchun tabiiy hududlarga tashrif buyurishni, ya'ni, mahalliy jamoalarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlaydigan tabiatdagi tajribaga asoslangan turizmni tashkil etish va amalga oshirishi kerak bo'ladi. Garchi sarguzashtga asoslangan turizm faoliyatlari bilan bir qatorda yuqoridagi jadvalga kiritilmagan ekoturizmning boshqa maxsus turlari ham mavjud. Jumladan, g'orlarga kirish, qoyalarga chiqish yoki tirmanish, itlar tortadigan chanada uchish, muz sorfingi, shamol sorfingi (windsurf), parashutda sakrash, bungi (bungee jumping-oyog'ini arqonga bog'lab) sakrash, vertalyotda kayak, dengiz kayag'i, chim-o't kayag'i, Qor avtomobilida uchish, motokross, snoubord (snowboarding), orientiring kabi turizm turlari ham mavjud.

²² Sohaga oid manbalar asosida tuzilgan




1-rasm. Shamol sorfingi (windsurf)



2-rasm. Parashutda sakrash

Shuningdek, ekoturizmning kit tomoshasi, tuyada sayr qilish, yulduzlarni tomosha qilish va (mahalliy) aborigen turizmi kabi turlari ham mavjud.



3-rasm. Kit tomoshasi



4-rasm. Vertalyotda kayak

Ekoturizm faoliyatining keng tarqalishi uchun ekoturizm bilan bog'liq ta'sirlarni baholash va ekoturizmning ayrim turlari maqsadli muhitga qanchalik mos kelishini ko'rib chiqish kerak. Xususan, ekoturizm faoliyati amalga oshiriladigan zonalarda turist qabul qilish qobiliyati yoki imkoniyatlari belgilanishi va undan oshib ketmasligi uchun zarur sharoitlar yaratilishi kerak. Shu nuqtayi nazardan, destinatsiyada ekoturizm faoliyatlarini nazorat qilish orqali rivojlantirish borasida tashlanadigan eng muhim qadam ekoturizm hududlari va faoliyat turlarini aniqlashtirishdan iborat. Ayni paytda infratuzilma xizmatlari ham ekoturizm destinatsiyalarida va faoliyatlarida katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Ekoturizm samaralari tabiiy va madaniy qadriyatlarga zarar yetkazmasligi, aksincha, ularni muhofaza qilish va rivojlantirishga, resurslar qadriga va ekologik yaxlitligiga bevosita va ko'p tomonlama hissa qo'shishi, tabiatga va atrof-muhit etikasiga muvofiq so'zda va amalda rag'batlantirish bo'lishi kerak.

Shuningdek, ekoturizm samaralari insonga emas, tabiatga qaratilgan bo‘lishi, tashqi qadriyatlardan ko‘ra ichki qadriyatlarga e‘tibor qaratilishi, tadbir jarayonida mahalliy aholining faol ishtirokini ta‘minlash, tadbirlarda tabiatga hissa qo‘shish, o‘rganish va qadrlash mezonlari bilan qoniqish hosil qilish kabi asosiy maqsadlar e‘tiborga olinishi kerak. Mazkur faoliyat yashil iqtisodiyotning rivojlanishiga va ekoturizm turlarining kengayishiga omil bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risidagi” Qonuni. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 19.07.2019 y., 03/19/549/3446-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida Farmoni.
3. Xaitboyev R. Ekoturizm asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Barkamol fayz media”, 2018. – 248 b.
4. Tuxliyev N., Jiyanov O‘. Turizm iqtisodiyoti va menejmenti. Darslik. – T.: «Ilm-Ziyo-Zakovat» nashriyoti, 2021. – 234 b.
5. Tuxliyev N.T., Gulyamova G.P., Valiyev B.B. Turizmda menejmentning zamonaviy usullari. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Lesson Press” MChJ nashriyoti, 2023. – 216 b.
6. Gulyamova G.P. Turizmda institusional munosabatlar. O‘quv qo‘llanma. T.: “COMPLEX PRINT”, 2019. – 240 b.
7. <https://www.unwto.org> (Butunjahon Turizm Tashkiloti).
8. <https://uzbektourism.uz>.
9. <https://wtcc.org> (Jahon Sayohat va Turizm Tashkiloti).

International Cooperation in the Process of Green Economic Transformation in Uzbekistan

Peng Xinghe²³

Abstract: Uzbekistan is a country with a rapidly growing economy. It is currently in a critical stage of promoting the transformation of green economic development. The Uzbek government is very aware of the importance of integrating green initiatives into economic development. It actively seeks international cooperation. The introduction of advanced green technologies and equipment is the only way for Uzbekistan's green development.

I. Introduction

In today's world, the development of a green economy has become an important trend. After humans entered the industrial society, the pace of

²³ Associate Professor of Tashkent State University of Oriental Studies, Ph.D. in economics, 452161501@qq.com